

**IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH DAVRIDA MONOPOLIYAGA
QARSHI QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI**

Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi

(FarDU o'qituvchisi)

Mamajonova Dilafruz Valisher qizi

(FarDU o'qituvchisi)

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda monopoliyani bosqichma-bosqich tugatib, raqobatni rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish borasida bir qancha qonunlar qabul qilinyapti. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotni yanada jadal rivojlanishiga yo'l ochib beradi. Ushbu maqolada monopoliya qarshi qonunchlikning rivojlanish bosqichlari o'rganilgan.

***Kalit so'zlar:** Monopoliya, Tabiiy monopoliya, raqobat, antimonopol siyosat, demonopolizatsiya, xususiylashtirish.*

**ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ АНТИМОНОПОЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
В ПЕРИОД ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ
ЭКОНОМИКИ**

**STAGES OF DEVELOPMENT OF ANTIMONOPOLY LEGISLATION
DURING THE PERIOD OF ECONOMIC
LIBERALIZATION**

O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi hamda tashqi savdo liberalizatsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi sharoitida ichki bozorda raqobat muhitini ta’minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish talab qilinadi. Bu esa mamlakatda raqobat muhitining shakllanish jarayonini tadqiq etish, sohaga doir qonunchilikni takomillashtirish, antimonopol siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishni obyektiv zaruratga aylantiradi. Shu bois, raqobatni rivojlantirish tarkibiy islohotlarining amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: “Dunyo tajribasini o‘rganib, o‘z yo‘limizni topishimiz zarur. Monopoliyadan chiqarish, raqobatni ta’minlash, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yakdil yo‘nalishimiz bo‘lishi kerak”, deb ta’kidlagan.¹

XX asrning 90 yillarigacha O‘zbekistonda barcha sohalarda davlat monopoliyasi hamda markazlashgan rejali iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyati sababli raqobat mavjud emas edi. Rejali iqtisodiyotning monopol samaralari quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ldi:

- 1) ko‘pchilik tarmoqlarda 1-2 ta yirik korxonalar tomonidan namoyish qilingan konsentratsiyaning yuqori darajasi;
- 2) narxlarning o‘rnatilishi va resurslarning taqsimlanishi markazlashgan;
- 3) har bir korxonada o‘z tovariga ortiqcha talab natijasida muqarrar monopol bo‘lganda, “sotuvchi bozori” ni shakllantiradigan tovarlarning umumiy defitsiti;
- 4) bozor iqtisodiyotlaridagi raqobatning asosi - xususiy korxonalarining mavjud emasligi.

Agar 1996 yilda Monopol korxonalarining Davlat reyestriga 828 korxonada 5186 tovar va xizmatlar turi bo‘yicha kirgan bo‘lsa, 2020 yilning 1 aprel holatiga 136

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 28 май куни иқтисодиётда рақобат муҳитини таъминлаш ва истеъмолчилар ҳуқуқини ҳимоя қилиш борасидаги устувор вазифалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи. <https://uz.uz/oz/politics/ra-obat-bozor-i-tisodiyetigaatiy-tish-zharayenida-printsipi-28-05-2020>

korxonalar 11 turdagi tovar va xizmatlar bo'yicha kiritilgan¹. Amalga oshirilgan qator islohotlar monopol korxonalar sonini ahamiyatli kamaytirgan bo'lsada, ayrim tarmoqlar va faoliyat turlarida monopoliya saqlanib qolmoqda. Bu esa antimonopol siyosatni amalga oshirishda cheklovlar mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayishi sharoitiga mos raqobat muhitini yaratish bozor munosabatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Raqobat nafaqat bozorning samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi, balki xo'jalik faoliyatini yuritish natijasida yuzaga keladigan turli xil nomutanosibliklarning tabiiy tartibga soluvchisidir. Raqobatning asosiy cheklovchisi – bozor ishtirokchilarining tor doirasidagi bozor konsentratsiyasi hisoblanadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, antimonopol qonunlarning 200 yildan ortiq tarixiga qaramasdan, hanuzgacha antimonopol siyosatni amalga oshirishning yanada samaraliroq shakllarini qidirish davom etmoqda.

Tub iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan bir vaqtda sodir bo'lgan antimonopol siyosatning shakllanishini quyidagi uch bosqichga bo'lish mumkin²:

1-bosqich (1991-1999 yillar). Raqobatni rivojlantirishning institutsional asoslarini yaratish. Mustaqillikka erishish bilan birinchi darajali vazifa bozor munosabatlarini rivojlantirish, eng avvalo, xususiy mulkchilikni shakllantirish yo'li bilan tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish bo'ldi. Shuning uchun antimonopol siyosat davlat tasarrufidan chiqarish siyosatining bir qismi sifatida qaraldi. Shu maqsadda 1992 yilda mulkchilik munosabatlarini isloh qilishning huquqiy asosini tashkil qilgan "Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

1992 yilning iyul oyida O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib monopoliyadan ogohlantirish va cheklash, nohalol raqobatga yo'l qo'ymaslik,

¹ Ўзбекистон Республикаси Монополияга қарши курашиш қўмитаси; <https://antimon.gov.uz/uzb/xizmatlar/ochiq-malumatlar/tabiiy-monopoliya-subektlariningdavlat-reestri>

² Аналитический доклад ЦЭИ "Основные направления совершенствования антимонопольной политики в условиях углубления экономических реформ", 2017 г., № 1, стр. 6.

antimonopol qonunchilikka rioya qilishni nazorat qilishning huquqiy asosini belgilab bergan “Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi.

Antimonopol siyosat rolining o‘tib borishini hisobga olgan holda, 1996 yilda iste‘molchi huquqlarini himoya qilish, tabiiy monopoliyalar va reklama faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka amal qilishni nazorat qilish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar yuklash bilan Moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi maqomi berildi¹. 2000 yilda Qo‘mita Moliya vazirligi tizimidan chiqarilib, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sifatida qayta tashkil qilingan².

2-bosqich (2000-2010 yillar). Demonopolizatsiya, monopolistlarni bo‘lib yuborish va qayta tashkil etish. Xususiylashtirish jarayonida davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga ommaviy aylantirish yuz berdi. Ammo davlat ulushining saqlab qolinishi natijasida korxonalarni qayta tashkil qilish jarayoni ular asosida yangi bo‘lishiga qaramasdan, avvalgidek monopol tuzilmalarning qisman paydo bo‘lishi bilan birga sodir bo‘ldi. Pirovardida xususiylashtirish amalda bozor demonopolizatsiyasiga olib kelmadi. Agar 2000 yilda 50 ta eng yirik sanoat korxonalari sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 52,9% ishlab chiqargan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 58,4% ni tashkil qilib, bozor konsentratsiyasining yuqori ekanligidan dalolat bermoqda³.

1999 yil “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinib, qonun mazmunan va hajman (10 tadan 20 moddaga) kengaydi.

Shu bilan birga raqobat muhitini shakllantirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini jadal rivojlantirish hisobiga bozorda ishtirokchilar sonini

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 23 мая 1996 года №УП-1464 «Об образовании Комитета по демонополизации и развитию конкуренции при Министерстве финансов Республики Узбекистан».

² Указ Президента Республики Узбекистан от 2 августа 2000 года №УП-2676 «Об образовании Государственного комитета Республики Узбекистан по демонополизации и развитию конкуренции». (Настоящий Указ утратил силу в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 30 апреля 2005 года № УП-3602 «Об образовании Государственного комитета Республики Узбекистан по демонополизации, поддержке конкуренции и предпринимательства». – Ред.)

³ Аналитический доклад ЦЭИ “Основные направления совершенствования антимонопольной политики в условиях углубления экономических реформ”, 2017 г., № 1, стр. 7.

ko'paytirish orqali sodir bo'ldi¹. "2002-2005 yillarda va 2010 yilgacha bo'lgan davrda raqobat muhitini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" dasturini amalga oshirish doirasida ustun mavqega ega kompaniyalar faoliyatini tartibga solish, davlat xaridlari mexanizmining samaradorligini oshirish, davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlarining korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatiga aralashuvini kamaytirish bo'yicha choralar kuchaytirildi².

3-bosqich (2011 yildan – 2015yilgacha). Moliya bozorlarini antimonopol tartibga solish. 2008-2010 yillardagi global inqiroz hatto eng taraqqiy etgan mamlakatlarning ham moliyaviy tizimi mukammal emasligini yaqqol ko'rsatib, barcha mamlakatlarning rivojlanish dinamikasiga salbiy ta'sir qildi. Inqiroz moliya bozorlarida "pufak"lar paydo bo'lishining oldini olishda mazkur bozorlarni aynan antimonopol tartibga solish muhim rol o'ynashini aniq ko'rsatib berdi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 20 avgustda "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 230-sonli qarori qabul qilindi. Unda moliya bozorida ustun mavqeini e'tirof etish tartibi, xizmatlarning moliya bozorida monopol yuqori va monopol past narxlarni aniqlash tartibi, raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish masalalarini ko'rib chiqish tartibi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi aksiyalarni va boshqa mulkiy huquqlarini olishga doir bitimlarni ko'rib chiqish hamda bunday bitimlarni tuzish uchun oldindan rozilik olish tartibi belgilandi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 30 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш, рақобат ва тadbirkorликни қўллаб-қувватлаш давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида"ги ПФ-3602-сонли Фармони. (Мазкур Фармон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги ПФ-4191-сонли «Монополияга қарши ишларни тартибга солиш ва рақобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чоратadbirlari тўғрисида»ги Фармонига асосан ўз кучини йўқотган. – Тахр.)

² 2010 йилда Монополиядан чиқариш, рақобат ва тadbirkorликни қўллаб-қувватлаш давлат қўмитасининг вазифалари ва ҳуқуқларига оид ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиб, Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси этиб қайта ташкил қилинди.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 10 maydagi “Monopoliyaga qarshi organning tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotni olishi tartibi to‘g‘risida”gi 118-son qarori bilan “Monopoliyaga qarshi organning tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotni olishi tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi. Monopol mahsulotlar ro‘yxati va turlarini tubdan qisqartirish hamda monopoliyaga qarshi tartibga solishning xalqaro prinsiplariga o‘tishni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 martdagi “Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 249-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq narxlarni davlat tomonidan tartibga solish (deklaratsiya qilish, tasdiqlash, qat‘iy belgilangan yoki cheklangan narxlarni (tariflarni) o‘rnatish, tartibga soluvchi koeffitsiyent, ustama va rentabellikning chegaralangan darajasi va narxni tartibga solishning boshqa usullari) faqat:

– ushbu qarorning 2-ilovasida keltirilgan narxlari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar (xizmatlar) va ularning strategik turlari ro‘yxatidagi tovarlarga (xizmatlarga);

– tabiiy monopoliya sharoitlarida ishlab chiqariladigan tovarlarga (ko‘rsatiladigan xizmatlarga);

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida narxlarini (tariflarini) tartibga solish nazarda tutilgan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

4-bosqich (2016 yildan – h.v.). 2012 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi 2017 yilda Xususiylashtirilgan davlat mulki negizida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini sifat jihatdan o‘zgartirishni ta‘minlash, tadbirkorlik subyektlarini xususiylashtirilgandan keyin amaliy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davlat mulkidan foydalanish

samaradorligini oshirish maqsadida faoliyatining ustuvor yoʻnalishlari belgilanib, Xususiylashtirilgan korxonalariga koʻmaklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qoʻmitasi etib qayta tashkil etilgan edi.

Institutsional va tarkibiy islohotlarni jadallik bilan amalga oshirish, davlat aktivlarini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish, kapital bozorining ishonchli ishlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5630-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq quyidagilar tashkil etildi:

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi;
- Monopoliyaga qarshi kurashish qoʻmitasi;
- Kapital bozorni rivojlantirish agentligi;
- Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamgʻarmasi.
- Tadbirkorlik faoliyati asoslarini oʻqitish Respublika markazi Savdo-sanoat palatasiga berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 28 май куни иқтисодиётда рақобат муҳитини таъминлаш ва истеъмолчилар ҳуқуқини ҳимоя қилиш борасидаги устувор вазифалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи. <https://uza.uz/oz/politics/ra-obat-bozor-i-tisodiyetigaatiy-tish-zharayenida-printsipi-28-05-2020>
2. Ўзбекистон Республикаси Монополияга қарши курашиш қўмитаси; <https://antimon.gov.uz/uzb/xizmatlar/ochiq-malumotlar/tabiiy-monopoliya-subektlariningdavlat-reestri>

3. Аналитический доклад ЦЭИ “Основные направления совершенствования антимонопольной политики в условиях углубления экономических реформ”, 2017 г., № 1, стр. 6.

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 23 мая 1996 года №УП-1464 «Об образовании Комитета по демополизации и развитию конкуренции при Министерстве финансов Республики Узбекистан».

5. Указ Президента Республики Узбекистан от 2 августа 2000 года №УП-2676 «Об образовании Государственного комитета Республики Узбекистан по демополизации и развитию конкуренции». (Настоящий Указ утратил силу в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 30 апреля 2005 года № УП-3602 «Об образовании Государственного комитета Республики Узбекистан по демополизации, поддержке конкуренции и предпринимательства». – Ред.)

6. Аналитический доклад ЦЭИ “Основные направления совершенствования антимонопольной политики в условиях углубления экономических реформ”, 2017 г., № 1, стр. 7.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 30 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Моно-полиядан чиқариш, рақобат ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-3602-сонли Фармони. (Мазкур Фармон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги ПФ-4191-сонли «Монополияга қарши ишларни тартибга солиш ва рақобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида»ги Фармонига асосан ўз кучини йўқотган. – Таҳр.)

8. 2010 йилда Монополиядан чиқариш, рақобат ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш давлат қўмитасининг вазифалари ва ҳуқуқларига оид ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиб, Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси этиб қайта ташкил қилинди.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 январдаги “Давлат активларини бошқариш, монополияга қарши курашишни тартибга солиш тизимини ва капитал бозорини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5630-сонли Фармони.